

## XITOIY VA BOSHQA TILLAR NUTQIY SO‘ZLASHUVIDA NOVERBAL MULOQOTNING TURLARI

**Karimova Xilola Ulug‘bek kizi**

O‘zDJTU lingvistika (xitoy tili) magistri

E-mail: [karimova.hk0122@gmail.com](mailto:karimova.hk0122@gmail.com)

**Annotatsiya:** Insoniy muloqot ikkiga bo‘linadi: og‘zaki (vebral) va noverbal muloqot, ular bir-birini to‘ldiradi va birgalikda insoniy muloqotning ajralmas butunligini tashkil qiladi. Og‘zaki muloqot - kundalik hayotimizda so‘zlar bilan muloqot qilish harakati hisoblanadi va odamlar har kuni og‘izaki muloqot orqali muloqotga kirishishadi; novebral muloqot esa, kommunikativ va og‘zaki xatti-harakatlardan tashqari kommunikativ muhit tomonidan ishlab chiqarilgan barcha ogohlantirishlarni o‘z ichiga oladi va bu ogohlantirishlar kommunikativ ishtirokchilar uchun potentsial axborot qiymati biron bir ma’noga ega va bu ogohlantirishlar boshqa bir tomon idrok etilgandan so‘ng, ular kommunikativ ma’no hosil qiladi. Ushbu maqola novebral muloqotning ta’rifi va tasnifiga e’tibor qaratadi va misol sifatida xitoy tilida va boshqa tilarda novebral muloqotning farqlarini o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** Novebral muloqot, madaniyatlararo muloqot, imo-ishora tili, tana tili, yuz ifodalari.

**Abstract.** Human communication is divided into two forms: verbal communication and non-verbal communication, they complement each other and together form an integral whole of human communication. Verbal communication is the act of communicating with words in our daily life, and people communicate through verbal communication every day; and verbal communication includes all stimuli produced by the communicative environment, except for communicative and verbal

behavior, and these stimuli have a potential informational value or some meaning for the communicative participants, and after these stimuli are perceived by the other party, they create communicative meaning. This article focuses on the definition and classification of nonverbal communication and explores the differences between nonverbal communication in Chinese culture and cross-cultural communication using somatic language as an example.

**Key words.** Verbal communication, intercultural communication, sign language, body language, facial expressions.

Noverbal muloqot (xitoycha 非语言交际 - fēi yǔyán jiāoji) bu kommunikativ xatti-harakatlar, og‘izaki sozlashuvdan tashqaridagi xatti-harakatlarni anglatadi. Ular asosan imo-ishoralar, tana harakatlari, bosh harakatlari, yuz ifodalari, va boshqa ko‘rinishlarda bo‘ladi.

Imo-ishora tili - bu ma’lumotni etkazish uchun kaftlar, barmoqlar va qo‘llarning harakatlaridan foydalanish. “Qo‘l berib ko‘rishish” asosan xalqaro ishora bo‘lib, ba’zida “xush kelibsiz” so‘zidan ko‘ra do‘stonaroq ma’noni anglatadi. Ba’zi imo-ishora tillari turli tillarda o‘xshash ma’noga ega. Ammo biz milliy madaniy farqlardan kelib chiqadigan turli xil noverbal muloqotga ko‘proq e’tibor beramiz. Misol uchun, oddiy harakat “bosh barmog‘i” Xitoy tilida maqto‘v yoki qoniqish, kongli to‘lganligini anglatadi, lekin Avstraliyada odamlar bilan muloqot vaqtida bu ishora odobsizlikni anglatadi. Ko‘rsatkich barmog‘i va bosh barmog‘i aylana hosil qilish “OK” ishorasi - bu Xitoy tilida “零- líng nol” degan ma’noni anglatadi, Gretsiya va Italiyada esa "axloqsizlik" ishoradir. Qo‘lni bo‘g‘ziga qo‘yish ishorasi Xitoy tilida ishdan bo‘shash, chetlashtirish manisini anglatadi yani (xitoycha 被炒鱿鱼- bèi chǎoyóuyú) deyiladi. Ammo g‘arbda bu ishora “o‘lim”, rus tilida esa “to‘ydim” manisini beradi.

Noverbal muloqotning yana bir turi bu tana pozitsiyasi, yani butun tananing qisqa muddatli harakatlari, odamlarning muloqot vaqtidagi tana harakatlari tushuniladi.

Xitoy va boshqa Uzoq sharq davlatlarida noverbal muloqotning bu usulidan juda kam foydalanishadi, aksincha Yaqin Sharq va Lotin Amerikasi esa ushbu usuldan juda keng foydalanishadi, hattoki Italiyada agar odamning oyoq qollari bo‘lmasa u gapira olmaydi deb ham hazillashishadi, bundan ko‘rinib turibdiki muloqot vaqtida tana pozitsiyasidan foydalanish ular uchun juda muhim.

Ko‘zlar orqali muloqot ham noverbal muloqotning bir turi hisoblanadi. Emersonning<sup>1</sup> so‘zlariga ko‘ra “inson ko‘zlari til kabi muloqot qila oladi, hech qanday so‘z ishlatmasa ham ko‘z muloqoti orqali ko‘p narsani tushunsa bo‘ladi” Xalqaro ishbilarmonlik muzokaralarda amerikaliklarda yuzma-yuz tik boqmaslik salbiy manoni anglatadi, lekin xitoyda muloqot vaqtida hurmat yuzasidan ko‘zlarni pastga qaratadilar.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, yuzma-yuz muloqotda ma’lumotlarning ijtimoiy mazmunining atigi 35% og‘izaki muloqot, qolgan qismi esa noverbal muloqot yani xatti-harakatlar orqali uzatiladi. Bundan tashqari, odamlar o‘z his-tuyg‘ularini va munosabatlarini ifoda etganda, til kommunikativ xatti-harakatlarning atigi 7% tashkil qiladi, ovoz ohangi va yuz ifodalari esa ma’lumotlarning 93 foizini beradi. Odamlarning narsalar haqidagi taassurotlariga tashqi shakllar chuqur ta’sir qiladi. Agar odamlar, narsalar yoki narsalarning tashqi ko‘rinishiga qarab baholanmaslik kerakligini oqilona bilsalar ham, birinchi taassurot ularga ongsiz ravishda ta’sir qiladi. Odatda biz birinchi navbatda odamning tili yoki yozuviga e’tibor beramiz, chunki bu farqlash uchun eng qulay aniq xususiyatdir. Biroq, og‘zaki iboralar har doim etarli bo‘lmaganligi sababli, biz uning noverbal ifodalariga qo‘shimcha e’tibor qaratamiz, bu bizga boshqa odamning his-tuyg‘ularini, munosabatini, shaxsiy xususiyatlarini va hatto qalblarining haqiqiy niyatlarini tushunishga yordam beradi.

---

1. <sup>1</sup> Ральф Уолдо Эмерсон. —中西文化中非语言交际的差异论文 <https://bivelunwen.vjby.com>

Xulosa qilib aytganda, insoniy muloqot verbal va novebral muloqotni o‘z ichiga oladi va muloqot qilish uchun novebral muloqot vositalardan foydalanish ham kommunikativ kompetentsiyaning bir jihati hisoblanadi. Ular til aloqasida muhim yordamchi rol o‘ynaydi. Turli madaniyatlarda novebral muloqot uchun turli qoidalar mavjud. Madaniyatlararo muloqotda, agar bu og‘zaki bo‘lmagan ma’lumotlarning xususiyatlari tushunilmasa, muloqotda tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu bizdan madaniyatlararo muloqotda ularning farqlari va ziddiyatlarini to‘liq tushunishni, madaniy farqlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni, bir-birini hurmat qilishni va teng huquqli muloqot qilishni talab qiladi, shunda muloqot muammosiz amalga oshirilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Hall, E. T. The Silent Language [M]. Anchor Books, 1973
2. 中西文化中非语言交际的差异论文 <https://biyelunwen.yjbys.com>